

II bob. Ekologiya va salomatlik

8-dars

HAVONING IFLOSLANISHI



Yo'llarda avtomobillar soni yildan yilgan ortib bormoqda. Transportning ushbu qulay turidan foydalanishni istaganlar ham ko'paymoqda. Serqatnov ko'chalarda eski va yangi mashinalarni uchramiz. Ularning ba'zilaridan qop-qora tutun chiqadi. Yangi va soz holatdagi mashinadan atmosferaga zaharli gazlar kamroq chiqadi. Mashinaning motori ishlashi natijasida paydo bo'ladigan gazlar chiqindi gazlar deyiladi.



Chiqindi gazlar katta miqdorda to'planib, tuman hosil qiladi. Bunday tumanlar yo'lni ko'rishni qiyinlashtiradi va salomatlik uchun xavflidir. Chiqindi gazlar tarkibidagi zararli moddalar nafas yo'liga tushib, organizmni zaharlaydi, natijada odamning boshi og'rib, ko'ngli ayniydi, hatto hushidan ketishi ham mumkin. Chiqindi gazlar organizmga qanchalik ko'p tushsa, uning oqibati shunchalik yomon bo'ladi. Insonlar o'z salomatligini asrash uchun toza havo muammosini hal qilish bilan jiddiy shug'ullanishi kerak.



1. Chiqindi gazlar nima uchun xavfli?
2. Zaharli tumanlar qanday paydo bo'ladi? U nimasi bilan xavfli?




1952-yil 5-dekabrda Angliya tarixidagi eng dahshatli ekologik hodisalardan biri yuz berdi. To'rt kun davomida Londonni buyuk tuman (great smog) qoplab oldi va u 9 dekabrda tarqadi. Bu hodisa chinakam ofat bo'lib, uning oqibatida 12 ming kishi halok bo'ldi, 100 mingdan ortiq odam zarar ko'rdi.



Havoning ifloslanishi katta shaharlar uchun jiddiy muammodir. Bu muammoni hal qilish uchun ekologik jamoat transportini rivojlantirish hamda elektromobillarga o'tish kerak. Tramvay, trolleybus va metrodan foydalaniladigan shaharlar havosi ancha toza bo'ladi.

Chiqindi gazlardan himoyalaniş uchun serqatnov ko'chalar bilan ko'pqavatli binolar o'rtasiga butalar qalin ekiladi. Bu butalar jonli devor hosil qilib, aholi yashaydigan hududlarni chiqindi gazlardan himoya qiladi.



SUV RESURSLARI (ZAXIRALARI)



Basseyn

– Hoy baraka topkurlar, suvni o'chirib yuringlar... – derdi Rasulning buvisi doim.

Rasul buvisi nega hadeb suvni tejayverishini hech tushunmasdi. Axir suv juda ko'p-ku! Jo'mrakni burasangiz bas, suv sharillab oqadi, toki o'chirmaguningizcha tinmaydi.

Rasulning dadasi suv quvurlari bo'yicha muhandis. Bir qishloqqa suv o'tkazilayotgan ekan, dadasi Rasulni ham olib ketdi.

Shahar o'sha qishloqqacha salkam uch soat yurishdi. Yo'lining ikki tomonida keng dalalar, paxsalik uylar ko'rinar edi. Havo juda issiq, hammayoq chang edi.

Dadasi mas'ul odamlar bilan gaplashguncha Rasul o'sha atrofda o'ynab yurdi. U ro'paradan bir bola ikkita plastmassa chelak ko'tarib kelayotganini ko'rdi.

– Qalaysan, og'ayni? – dedi Rasul. – Mening ismim Rasul. Chelagingdagi nima bor, suvmi?

– Ha, suv. Echkilarni sug'oraman, – dedi bola. – Ikkita katta echkimiz va bitta uloqchamiz bor. Mening ismim Asqar.

– Kel, yordamlashaman, – dedi Rasul. – Suvni qayyerdan olasan?

– Hozir ko'rsataman.

Asqar suvni echkilarning oldidagi tog'oraga bo'shatdi. Bolalar orqaga qaytishdi.

– Bittasini ber, ko'tarishvoraman, – dedi Rasul. – Suvni qayyerdan olasan?

– Hozir ko'rasan.



Asqar suvni echkilarning oldidagi tog'oraga bo'shatdi. Ikkovi orqaga qaytishdi.

– Mana shu yyerdan.. – deb Asqar qo'li bilan ko'rsatdi.

Rasul suv to'ldirilgan kichkina hovuzchani ko'rdi.

– Bizda suv quvurlari yo'q. Hovuzni o'zimiz qurganmiz. Yomg'ir yog'ganda, hovuzni suvga to'ldirib olamiz, keyin ehtiyot qilib ishlatamiz. Yozda suvni maxsus mashinalarda ikki haftada bir olib kelishadi. O'shandan sotib olamiz, lekin juda qimmat, – dedi bola.

– Yo tavba... – dedi Rasul. – Suv shunchalik qimmat bo'ladi deb hecham o'ylamagandim.

– Albatta qimmat, biroq suv bo'lmasa, na ovqat qila olasan, na yuvina olasan. Echkilar suvsiz qolsa, sut bermay qo'yadi. Shaharda katta basseymlar borligi va unda odamlar cho'milishi rostmi? Eh, qaniydi men ham o'shanaqa basseynda bir martagina cho'milsam!

– Rost... – dedi Rasul noqulay bo'lib. “Men suvni soatlab ochib qo'yib, hovliga suv sepaman. Asqar esa bir martagina cho'milishni orzu qilib yuribdi”, deb o'yladi u ichida.

Dadasining ishi bitgach, uyga qaytishdi. Rasul uyga kirishi bilan buvisining oldiga keldi va asta dedi:

– Buvijon, men endi hech qachon suvni bekorga isrof qilmayman... So'z beraman. Suvni qadrlash kerak ekan.



O'zbekistonning 80 foizga yaqin suv zaxiralari qo'shni davlatlar hududi orqali kiradi. Mamlakatimizning taxminan 80 foiz hududini cho'llar va tog'lar tashkil qiladi.



1. Nima uchun Rasul suv hech qachon tugamaydi deb o'ylar edi?
2. Asqar Rasulga nimani tushunib olishga yordam berdi?
3. Siz o'zingiz suvni qanday tejashingiz mumkin?



Mamlakatimizda suv nihoyatda tanqis. Bir paytlar yurtimiz janubida ulkan Orol dengizi bor edi. Biroq suvdan noto'g'ri foydalanish oqibatida bu dengiz quriy boshladi. Hozir uning katta qismi tuzli cho'lga aylangan.

2020-yilda Orol bo'yida yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvonot dunyosini himoya qilish, qo'riqxonalar tashkil qilish, tabiiy hududlarni kengaytirish bo'yicha davlat dasturi qabul qilindi.